

Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi



Ta'lim shakli, ta'lim davri:

240 kredit to'planadi, kunduzgi ta'lim shakli, 4 yil o'qiladi

Ta'lim klasifikatori:

Muhandis-texnolog

Ilmiy izlanish qamrovi:

Gazni chuqur qayta ishlash

Fakultet:

Yoqilg'i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi

Yo'nalish kodi:

60710100

Kafedra mudiri:

Mengliyev Sherzod Shoimovich, email: gqiktk@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan muhandis-texnolog mutaxassislarni (bakalavr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat ta'lim yo'nalishi – "Uzbekneftgaz" AJ korxonalarini bilan o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, korxonalarda mavjud muammolarga yechim topish maqsadida ilmiy yo'nalishlar olib borilmoqda. Magistratura talabalariga korxonalaridagi mavjud muammolarga asoslangan dissertatsiya mavzulari berilgan, ular asosan, mahalliy xom ashyo asosida yangi neft va gaz mahsulotlari, neft mahsulotlariga qo'shimcha qo'ndirmalar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga hamda neftni qayta ishlash sanoatini samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi



1-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	MKG1106	Muhandislik va kompyuter grafikasi	6

3-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	MS2304	Metrologiya va standartlashtirish	4
	OK1106	Organik kimyo	4
	AK2306	Analitik kimyo	6
	TM2306	Texnik mexanika	6
	EEA2306	Elektrotexnika va elektronika asoslari	6
	FKK2410	Fizikaviy va kolloid kimyo	4

2-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	DIN1204	Dinshunoslik	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	6
	OK1106	Organik kimyo	4

4-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	FKK2310	Fizikaviy va kolloid kimyo	6
	UKT2406	Umumiy kimyoviy texnologiya	6
	MNKV2404	Uglevodorodli gazlar fizikasi va kimyosi	4
	UGQI2408	Uglevodorodli gazlarni qayta ishlash texnologiyasi	4
	GChQI2405	Gazlarni chuqur qayta ishlash kimyosi va texnologiyasi	5
	GChQI2401	Gazlarni chuqur qayta ishlash kimyosi va texnologiyasi (kurs ishi)	1

Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi



5-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	FAL3504	Falsafa	4
	UGQI2408	Uglevodorodli gazlarni qayta ishlash texnologiyasi	4
	ATJQ3510	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar	4
			4
Tanlov fanlar			
YUMK3504/ TGGK3504	Yoqilg'i va uglerodli moddalar kimyoviy texnologiyasi/ Tabiiy gaz va gaz kondensatini qayta ishlash texnologiyasi	4	
UGT3504/ MHMU3504	Uglevodorodli gazlar texnologiyasi/ Muqobil homashyo manbalaridan uglevodorod olish texnologiyasi	4	

7-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SIM4704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	4
	IChJM4706	Ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va avtomatlashtirish	6
	GChQ4711	Neft va gazni qayta ishlash zavodlari jihoz va uskunalari	5
	GChQ4701	Neft va gazni qayta ishlash zavodlari jihoz va uskunalari (kurs loyihasi)	1
Tanlov fanlar			
NGYT4706/ NGMS4706	Neft va gazni yig'ish, tayyorlash va uzatish/ Neft-gaz mahsulotlarini saqlash va tashish	6	
UGQI4704/ NGQI4704	Uglevodorodli gazlarni qayta ishlash korxonalarida rekuperatsiyalash jarayonlari/ Neft va gazni qayta ishlashda chiqindisiz texnologiyalar	4	
UGQI4704/ NGSQ4704	Uglevodorodli gazlarni qayta ishlash nazariy asoslari/ Neft-gaz sanoat qurilmalarini takomillashtirish	4	

6-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	EKA3604	Ekologiya	4
	ATJQ3510	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar	6
	ATJQ3601	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar (kurs loyihasi)	1
	GChQ4711	Neft va gazni qayta ishlash zavodlari jihoz va uskunalari	6
Tanlov fanlar			
MUHP3602/ UP3602	Muhandislik psixologiyasi/ Umumiy pedagogika	2	
Fan kodi			
Fan nomi			
Kredit miqdori			
XFX4804	Hayot faoliyati havfsizligii	4	
GKSK4806	Gaz kimyosi sanoati korxonalarini loyihalash asoslari	6	
NGKS4806	Neft va gaz kimyoviy sintezi asoslari	6	
Tanlov fanlar			
NGKS4804/ NGSI4804	Neft va gaz kimyo sanoati katalizi/ Neft-gaz sanoatida ishlatiladigan adsorbentlar va katalizatorlar	4	

Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi



O'rganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi (Tabiiy gazlar, neft kondensati va gaz kimyo, gazni chuqur qayta ishlash) sohasiga oid nazariy, amaliy, ilmiy, kimyo, fizika, amaliy mexanika va muhandislik texnologiyalari tamoyillarini tushuntira oladi;
- A2** Gaz mahsulotlarini sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xom ashyo resurslaridan unumli foydalanish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi, ularning, Gazni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasida qo'llanilishini tushuntira oladi;
- A3** Gazni qayta ishlash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari va tushunchalarini tushuntira oladi, Gazni qayta ishlash texnologiyasida qo'llaniladigan xom-ashyo, materiallari, mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlari, Gazni qayta ishlash texnologiyasining barqaror rivojlanishi tushunchalarini tavsiflay oladi;
- A4** Gazni qayta ishlash texnologiyasining asosiy nazariy jihatlarini va tushunchalarini tavsiflay oladi va neft mahsulotlari (tabiiy gaz, kondensat, metan, etan, propan fraksiya mahsulotlari) ishlab chiqarish malakasiga ega;
- A5** Gazlarni chuqur qayta ishlash texnologiyasining boshqa fanlar (Ixtisoslikka kirish" va "Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar" "Gaz kimyosi va fizikasi" "Gazni qayta ishlash texnologiyasi") bilan aloqasini tushuntira oladi;
- A6** Kengroq multidisipliner kontekstni tushuntira oladi va boshqa texnologiyalarning usullari va jarayonlarini qo'llay oladi; Gaz kimyo sanoatini qayta ishlash jarayonlarini tushuntira oladi.

Texnologik tahlil

- B1** Gazni qayta ishlash jarayonlarini tahlil qilish va baholash, eksperimental, analitik va raqamli usullarni qo'llash, sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish texnologiyalarini (tabiiy gaz, kondensat, metan, etan, propan fraksiya mahsulotlari) tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Muhandislik va ishlab chiqarishdagi muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qila oladi, o'z bilim va tushunchalarini muhandislik va ilmiy-tadqiqot ishlari tahliliga qo'llay oladi, usullar va ishlab chiqarish jihozlarni tanlash, neft kondensati, tabiiy va yo'ldosh gazlar, kondensat, metan, etan, propan fraksiya mahsulotlari va ishlab chiqarish bosqichlarini tushuna oladi;
- B3** Xavfsizlik talablari va texnologiyalarning inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish, Gazni qayta ishlash texnologiyasida tegishli tahliliy va modellashtirish usullarini tanlash va qo'llash, texnologik parametrlar va jihozlarni tanlash, kimyo sanoati mashina va apparatlarni ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llash qobiliyatlariga ega;

Texnologik dizayn

- C1** Belgilangan texnik, iqtisodiy va ekologik talablarga javob beradigan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda texnologik bilim va tushunchalarni qo'llay oladi, Gaz jarayonlari tahlilini amalga oshira oladi;
- C2** Texnologiyani loyihalash metodologiyasini tushuntira oladi, ularni texnologik jarayonlarni loyihalashda, jarayonlarni raqamlashtirishda muhandislik va uskunalarni tanlashda qo'llay oladi.

Tadqiqot

- D1** Ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalarida fan innovatsiyalari haqida kerakli kasbiy va ilmiy ma'lumotlarni, ilmiy texnologik usullarni topa oladi, Gaz kimyosi va gazni qayta ishlash texnologiyasi ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish ma'lumot bazalarini tushuntira oladi;
- D2** Texnologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqish uchun raqamli modellashtirish usullarini tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega;
- D3** Kerakli tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, ularning ma'lumotlarini baholash va xulosalar chiqarish; kimyo, Gazni qayta ishlash texnologiyasi va muhandislik sohasidagi aniq muammolarni aniqlash va hal qilish; tegishli analitik asboblarni tanlash, kimyo va Gazni qayta ishlash texnologiyasi sanoati uskunalardan foydalanish qobiliyatiga ega.

Amaliy tadbirlar

- E1** Qurilmalarni texnik xolatini tekshirishda, shuningdek korxonaga kelayotgan yangi qurilmalarni sinashda ishtirok etishi;
- E2** Muhandislik va texnologik muammolarni hal qilishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, neft va gaz mahsulotlar ishlab chiqarishda reagentlarni tanlash, texnologik mahsulotlarning texnologik liniyalarini loyihalash qobiliyatiga ega;
- E3** Ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishini nazorat qilish;
- E4** Texnologik faoliyatni tashkil etish tamoyillarini, mehnatni muhofaza qilishning ahamiyati va asosiy talablarini, shuningdek, texnologik jarayon va biznes muhitining o'zaro ta'sirini tushuntira oladi.

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Mustaqil va jamoada samarali ishlash, jamoada va tipik va atipik vaziyatlarda ishlash qobiliyatiga ega;
- F2** Muhandislik va texnologiya jamiyati va keng jamoatchilik bilan ona tilida va chet tilida muloqot qila oladi va gumanitar, ijtimoiy, fan va texnologiya tushunchalarini tushuntirish qobiliyatiga ega;
- F3** Texnologik va muhandislik yechimlarining jamiyat va atrof-muhitga ta'sirini tushuntira oladi, kasbiy etika va texnologik muhandislik faoliyati normalariga rioya qiladi, kimyoviy texnologik faoliyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'ladi;
- F4** Tadbirkorlik qobiliyatlari, turli sanoat korxonalarini boshqarish, rivojlanish xususiyatlarini tushuntira oladi;
- F5** Mustaqil, uzluksiz ta'lim bilan shug'ullanish, texnologik taraqqiyot bilan birga takomillashish qobiliyatiga ega.